



2-TOM, 5-SON

HIKOYA JANRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Sindarov Kaxramon

Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xolxo‘ja va Ochil obrazlari faoliyatida ohib beriladi. Hikoyani o‘qigan kitobxon qahramonlar qalbidagi diyonatsizlikning tub asosi totalitar tuzumming o‘zida degan xulosaga keladi. Buni Xolxuja, Ochil ochiq kabi obrazlarda yorqin ifodalangan.

Kalit so’zlar: hikoya, janr, zamon, bozor iqtisodi, tafakkur, istiqlol davri.

Ma'lumki, badiiy ijoddagi muayyai yo‘nalish o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Uning o‘z asosi, tarixi bo‘ladi. Uning asosi esa zamon hamda davrdagi o‘zgarishdir. Istiqlol davri hikoyachiligidagi yangilanish tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog‘liq. Ya’ni unutilgan qadimiy qadriyatlarning tiklanishi, ma'rifat, ma'naviyatning asosi bo‘lgan dinga e'tiborning kuchayishi, davlat boshqaruvida demokratik yo‘nalishning yuzaga kelishi, bozor iqtisodining tarkib topishi va hokazolar. Bu o‘zgarish odamlarni boshqacha harakat qilishga undadi. Aniqki, bunday sa'y-harakatning barchasi ong, tafakkur orqali boshqariladi. Zero, shunday ekan, tafakkurdagi evrilish adabiyotda o‘z ifodasini topishi muqarrar va tabiiydir. Xo‘s, bu o‘zgarishlar istiqlol davri hikoyachiligida qanday yangilik va tamoyillarni keltirdi degan savol tug‘iladi? Bular quyidagilardir:

- janrda g‘oyaviy-tematik ko‘lam kengaydi;
- ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy masalaga e'tibor kuchaydi;
- gumanistik mazmun va ruhiy tahlil avj oldi;
- milliy va o‘ziga xoslik keng quloch yozdi;
- insonning hayotdagi o‘rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyati falsafiy yo‘nalishda ohib berildi. Jumladan, qahramonlar faoliyatiga, ruhiy dunyosiga, shuningdek, voqealar zamiriga singdirilib berilmagan g‘oyaga ega bo‘lgan asar, to‘la ma'noda badiiy asar sanalmaydi. Xaqiqiy badiiy asarda voqealar tizimi g‘oyaga suyanib tuzilishi, qahramonlari g‘oya asosida gapirishi yoki harakat qilishi kerak emas. Xaqiqiy badiiy asar sanalishiuchun g‘oya, yozuvchi asari orqali ko‘zlangan maqsad, niyat voqealar olamidan, qahramonlar faoliyatidan sizib chiqishi kerak. Asqad Muxtorning mustaqillik davrida yozgan hikoyalari shunday xususiyatga ega. Shunday hikoyalardan biri “Fano va baqo”dir.



2-TOM, 5-SON

Hikoya 1992 yilda totalitar jamiyat mafkurasidan holi mustaqillik tug‘dirgan imkoniyat tufayli Sharq falsafasi tamoyilida yozilgan. Unda insonning ikki dunyosi — fano va baqo xususida fikr yuritiladi.

Sharq falsafasi Qur'on va hadislarda ilgari surilgan fikrlarga ko‘ra, insonning foniylarini dunyodagi hayoti uning oxiratini belgilaydi. Ma'lumki, sovet mafkurasi buni inkor qilganligi uchun ko‘pchilik insoniylik mezonlariga qarshi yo‘l tutilgan, oxiratni o‘ylashmagan. Lekin hayot haqiqatidan ma'lumki, butun umri fosiqlikda o‘tgan, uning evaziga hayoti yaxshi kechganligidan bu xususida umuman o‘ylab ko‘rmas kas ham o‘limi ko‘ziga ko‘ringanda o‘z gunohlarini tan oladi, vijdoni qiynaladi. Hikoyada xuddi mana shu haqiqat Xolxo‘ja va Ochil obrazlari faoliyatida ochib beriladi. Hikoyani o‘qigan kitobxon qahramonlar qalbidagi diyonatsizlikning tub asosi totalitar tuzumning o‘zida degan xulosaga keladi. Buni Xolxuja, Ochil ochiq e’tirof etishadi. Ajal ularning bo‘g‘izidan olganda, o‘rtada shunday gap kechadi: “To‘g‘ri-yu, lekin hamma yomonlikka shu dunyoda o‘rgandik, shu yerda orttirdik barini. Odam bolasi dunyoga sof keladi, bu yerda orttirgan jamiki qabihliklarni, jinoyatu pastkashliklarni tashlab sof ketish kerak emasmi?

- Bu gapingiz to‘g‘ri. Tirikchilik - asli, tirriqchilik. U dunyoga ishonmaydida, ko‘plar. Shuning uchun qo‘rmay kirdikorlarini qilaveradi.

— Boqiy dunyoning borligi uning ostonasiga kelganimizdagina yodimizga tushadi. Inson borligiga bir umr iyomon keltirsa, kaptar kelib, quzg‘un ketmaydi... dorilbaqo ostonasida turgan kishi uchun fanonipg o‘zi ham, u tug‘dirgan mudhish gunohlar ham hech nima emas. Faqat ularni bu dunyoga tashlab ketish kerak.

- Tashlab ketib bo‘lar ekanmi... - dedi Ochil esankirab.

— Bo‘ladi, Xolxo‘ja... kimgadir yorilish kerak. Yoriladiganing bo‘lmasa, yomon, ichingda ketadi. Xayriyat, mana...”

Bu ularning baqo dunyo oldidagi tavba qilishlari edi. Lekin ular bu fano dunyoda o‘z hayotlarini iymonsizlik asosiga qurbanliklari tufayli o‘lim chekingach, yana avvalgidek fosiqligini davom ettirishadi. Chunki ularning xamiri sosialistik jamiyatning o‘zidan, ya‘ni diyonatsizlik va iymonsizlikdan qorilgan. Asqad Muxtor hikoya qahramonlari faoliyati va xatti-harakatidan kelib chiqib, insonni oxiratdan ogoh etadi. U yozadi: “Azobli yo‘lning barini bir-bir bosib o‘tish kerak. Fanoda ham, baqoda ham Xudovandi karim bir insonga ikki dunyoni berib qo‘yibdi. Ammo iymonni boy berganga ikkalasi ham harom ekan...”



2-TOM, 5-SON

Iymon masalasi insoniy masaladir. Chunki insonning barcha xatti-harakati, ya'ni ezhgulik yo'lida qilgan yaxshi a'mollari iymonga borib taqladidi. Ku'r'oni karim surasining 31-oyatida: ... chiroyli amal qilgan zotlarni go'zal (sabob-jannat) bilan mukofotlagay", — deyiladi. Yaxshi amallarni esa iymonli kishilargina qiladi. Shundan istiqqloldan keyin adabiyotda iymon masalasiga e'tibor kuchaydi. Bu bejiz emas. Chunki iymon, o'z navbatida, da'vat, ya'ni e'tiqodga, in- soniy komillikka da'vatdir. Asqad Muxtorning "Qora domla" nomli hikoyasi zamiriga ham shu masala singdirilgan. Hikoyada voqealar ko'lami ancha keng. Bu esa masala mohiyati ko'laming kengayishiga imkon bergen. Bu narsa voqealarga ramziy ma'no singdirilganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asqad Muxtor. Insonga qulluq qiladirman. — T., 1994
2. Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong. - T., 2003.
3. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. T., 2000.
4. Umarali Normatov. Tafakkur yog'dusi. — T., 2005.

